



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:23-09-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 20451

Obyekt nomi «Namangan shahridagi “Yangiariq” kanalining PK61+51 dan PK71+51 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish»

Buyurtmachi - “NAMANGANSUVQURILISH INVEST” davlat muassasasi

Bosh loyihachi - “KELAJAK-S” xususiy korxonasi

Litsenziya AL-000800 9.06.2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Byudjet

Bosh pudratchi - Tender asosida

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 18393

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5084-sonli qarori.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 202-F-sonli farmoyishi.

1.3. Namangan viloyati Hokimining 2021-yil 1-maydagi 284-sonli qarori.

1.4. Namangan viloyat Hokimining o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi va buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.5. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021-yil 19-iyuldagi 1714-1714401-24866-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.6. “KOMMUNALTA'MIRLOYIHA” MCHJ tomonidan 2021-yilda ishlab chiqilgan kanalning texnik tekshirish bo'yicha xulosa.

1.7. “GEO VALLEY GOLD” MCHJ tomonidan 2021-yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

1.8. “Shimoliy Farg'ona magistral kanali” boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan nuqson dalolatnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- “Yangiariq” kanalining PK61+51 dan PK71+51 gacha bo’lgan qismi bosh rejasi, qirqimlar va tugunlar, chizmalar va qaydnomalar.

- Tashqi muhandislik tarmoqlari (Suv va oqava suv ta’minoti, elektr tarmoqlari, sug’orish tizimi va videokuzatuv tizimi).

- Yordamchi bino va inshootlar.

- Rekonstruksiya qiymatining tavsiyaviy qismi.

- O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi “O‘zsuvekspertiza” DUKning 2021-yil 22-iyundagi 234-sonli xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

“Yangiariq” kanali Namangan shahrida joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14⁰s. Me‘yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes va suglinok (qatlam qalinligi 3,8 metrgacha) va 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 2,0 metrgacha) asos bo‘lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo‘yicha toifasi – II. Cho‘kuvchanligi bo‘yicha 1-guruh tuproq turiga to‘g‘ri keladi. Yer osti suvlari 10 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relyefi – tekis.

3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. “Yangiariq” kanali.

PK61+51 dan PK71+51 gacha “Yangiariq” kanali filtrlashini kamaytirish va texnik xulosaga asosan kanalning 1,0 km uzunlikdagi qismining texnik holatini yaxshilash uchun o‘ng va chap qirg‘oqdagi mavjud temir-beton qoplamalarni buzish hamda t-12mm.qalinlikda V15 markali yaxlit beton bilan qoplash ko‘zda tutilgan. Shuningdek o‘ng va chap tomonda yaxlit quyma temir-beton tirgak devorlar qurish loyihalangan.

2. Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish.

Loyihada 6 sm qalinlikda 7463 m² asfaltobeton qoplama qoplash, beton plitkadan jami 2654 m² velo va piyodalar yo‘laklari qurish va 1462 metr beton bordyur o‘rnatish nazarda tutilgan. Kanal bo‘ylab uzunligi 1895 metr metall to‘siqlar o‘rnatish loyihalangan. Bundan tashqari 2720 m² maydonga ko‘kalamzorlashtirish ko‘zda tutilgan. Hududda sayr qiluvchilar uchun 35 dona skameyka va chiqindi qutilari nazarda tutilgan.

3. Sug‘orish tarmog‘i.

Loyihada 37 uchastkada sug‘orish tizimini qurish ko‘zda tutilgan bo‘lib, turli xil diametrdagi plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Quvurlarni yotqizish chuqurligi 0,3 metrni tashkil etadi. Sug‘orish uchun suv purkagichlar o‘rnatish loyihalangan. Sug‘orish tizimini tashkil etish uchun individual loyiha asosida yerto‘lali nasosxona binosi qurish nazarda tutilgan.

4. Tashqi yoritish tizimi.

Loyihalalanayotgan tarmoqda turli kesimdagi AVVG markadagi kabellar ko‘zda tutilgan. Kabellar 0,5-0,7 metr chuqurlikda yotqiziladi. Tarmoq kuchlanishi-0,4kv. Ko‘cha yo‘llarini yoritish uchun individual metall tayanchlarga o‘rnatilgan “LED” chiroqlar ko‘zda tutilgan.

5. Ko‘priklar.

Loyihada kanalda bo‘ylab mavjud ko‘priklar ta‘mirlash nazarda tutilgan.

6. Yordamchi bino va inshootlar.

Loyihada individual va avvaldagi ishlab chiqilgan loyihalar asosida 50 m³ xajmli suv to'plash xovuzi, nasosxona, konteynerdan hojatxona, konteynerdan operator xonasi, 2 dona "Workout" maydoni qurish ko'zda tutilgan.

7. Videokuzatuv.

Loyihada videokuzatuv tizimi o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Videokuzatuv uchun IP-videokameralar, videokuzatuv tizimining jixozlarini o'rnatish uchun kommunikatsion javoni ko'zda tutilgan. Yozuv va videoma'lumotlar videoserver orqali amalga oshiriladi. Tizim KSVPP va LOK optik kabelda loyihalangan. Uzluksiz quvvat bilan ta'minlash va kuchlanishni tartibga solish uchun alohida UPS o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek loyihada "WI-FI" zonalar uchun internet tarmog'i qurish loyihalangan.

3.3. Asosiy ko'rsatkichlari.

- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismi uzunligi - 1,0 km;
- Kanalni obodonlashtirilayotgan qismida suv o'tkazish qobiliyati - 10 m³/sek.

3.4. Qurilish davomiyligi.

Obodonlashtirish davomiyligi - 12 oy.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Ichimlik suv ta'minoti - "Namangan suv ta'minoti" MCHJ Namangan shahar bo'limining 18.08.2021-yildagi 02/1489-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv tarmog'i qabul qilingan.

4.2. Oqava suv - "Namangan suv ta'minoti" MCHJ hududiy "Oqava tozalash" bo'limining 16.08.2021-yildagi 02/08-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Chiqindi suvlari markaziy oqava suv tizimiga ulanishi ko'zda tutilgan.

4.3. Sug'orish tizimi suv ta'minoti - Shimoliy Farg'ona magistral kanalining 3.08.2021-yildagi 01/01-125-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib "Yangiariq" kanali qabul qilingan.

4.4. Elektr ta'minoti - "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 4.08.2021-yildagi 35-18/1084-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/6 kVli "Kimyogar" dan chiqqan 6 kVli "MEZ-2" elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPG-160/10/0,4 kv va AIIKUE tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

4.5. Aloqa ta'minoti - "O'zbektelekom" AK Namangan filialining 12.08.2021-yildagi TSH-632-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja SHFMK boshqarmasi, SHFMK boshqarmasi "Yangiariq" uchastkasi, "Norin-Sirdaryo" ITHB, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, Namangan shahar qurilish bo'limi va buyurtmachi bilan kelishilgan.

- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 10.08.2021-yildagi 01-19/01-804-sonli xulosasi.

- "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 14.09.2021-yildagi 35-33/0904-sonli xulosasi.

- "O'zenergoinspeksiya" Namangan hududiy bo'limining 16.09.2021-yildagi 16/1039-sonli xulosasi.

- "Norin-Sirdaryo" ITHB boshlig'i tomonidan tasdiqlangan 2021-yil 5-iyuldagi 11-sonli texnik Kengash

bayoni.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ta'kidlansinki, ekspertiza qarovi jarayonida loyiha hujjatlariga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (muayyan ekspertiza xulosasidagi kamchiliklarga ko'ra):

6.1.1. Bosh rejada piketlar joylashuvi hamda kichik bino va inshootlar rejaviy joylashuvi o'lchamlari - ko'rsatildi.

6.1.2. Bosh rejada "Workout" maydoni soni - o'zgartirildi.

6.1.3. Piyodalar va velosiped yo'laklari ko'ndalang qirqimlari - ishlab chiqildi.

6.1.4. "Yangiariq" qizil chizig'i - taqdim etildi.

6.1.5. Operator va sanuzel poydevor qismi - ishlab chiqildi.

6.1.6. FL-1, FL-2 poydevor chizmalari bosh reja chizmasiga - bog'landi.

6.1.7. 1-sonli jadvalda umumiy ish xajmlari - berildi.

6.1.8. Bosh rejada shartli belgilar va piketlar - ko'rsatildi.

6.1.9. Bo'ylama qirqim chizmasida reper - ko'rsatildi.

6.1.10. Tirgak beton devorining konstruktiv chizmasi - ishlab chiqildi.

6.1.11. Tirgak beton devorining beton markasi - ko'rsatildi

6.1.12. Tirgak beton devor, kanal betonlash qismlarining armatura sarfi hisoboti - taqdim etildi.

6.1.13. Sifatli grunt qatlamining zichligi - ko'rsatildi.

Muhandislik ta'minoti.

6.1.14. Sug'orish tizimi suv ta'minoti uchun Shimoliy Farg'ona magistral kanalining 3.08.2021-yildagi 01/01-125-sonli texnik sharti - taqdim etildi.

6.1.15. Topotasvir hujjatlari ishlab chiqaruvchi tomonidan - tasdiqlandi.

Kuchsiz tok.

6.1.16. Namangan telekommunikatsiya bog'lamasining 12.08.2021-y., 632-TSH-sonli texnik shartiga muvofiq aloqa tarmog'i ishchi chizmasi - taqdim etildi.

6.1.17. Dispetcherlik-server xonasi SHNQ 2.04.09-2007ga muvofiq yong'in signalizatsiya tizimi bilan jixozlash - ko'zda tutildi.

6.1.18. Obyektni videokuzatuv loyihasida kameralar parametri, qamrov radiusiga muvofiq kameralar soni - kamaytirildi.

6.1.19. Videokuzatuv rejasida aloqa kanalizatsiya tarmog'i uzunligi, aloqa quduqlari - aks ettirildi.

6.1.20. Videokuzatuv qismi jixoz va uskunalar ehtiyoji jadvalida videokameralar soniga muvofiq videoyozuvlarni qayd etish jixozi, videomonitor soni - kamaytirildi.

Sug'orish tarmog'i rejasi.

6.1.21. Sug'orish tizimining magistral, tarqatuvchi quvurlar, diametrlari ko'rsatilgan detallashtirilgan chizmasi - taqdim etildi.

6.1.22. QMQ 2.04.04-97 talablariga muvofiq loyihada "Plastmassa quvurlarni ulash" bo'limi - ishlab chiqildi.

6.1.23. Sug'orish tarmog'i bosh rejasida sug'orish quvurlarini yotqizishda mavjud muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga shikast yetkazmaslik va ehtiyot choralarini ko'rish maqsadida yer ishlarini bajarishdan avval tegishli vakillar ishtirokini ta'minlash xakida yozuvlar - kiritildi.

Nasosxona.

6.1.24. Nasosxona binosi texnologik qismi ishchi chizmalari - taqdim etildi.

6.1.25. Nasoslar tanlash hisoblari - taqdim etildi.

Elektr qismi.

6.1.26. Loyiha pasporti, umumiy tushuntirish yozuvlari texnik shart talablarini bajarilishi, transformatorni va elektr qurilmalari tanlash hamda xavfsizlik va himoya talablari - yoritildi.

6.1.27. "MEZ-2" elektr uzatish tarmog'ini releli himoya hisobi - ishlab chiqildi va ishchi loyiha "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ hamda "O'zenergoinspeksiyasi" Namangan hududiy bo'limi bilan - kelishildi.

6.1.28. Bir chiziqli chizmada tarmoqqa ulanish nuqtasi - ko'rsatildi.

6.1.29. Ishchi loyihada transformator punktini o'rnatish bo'yicha chizmalar - berildi.

6.1.30. Tashqi yoritish chiroqlarida montaj ishlari yerlantirish va xavfsizlik himoya talablari - ko'rsatildi.

6.2. Qurilish bahosini hisoblash.

Ekspertizaga taqdim qilingan - 9733217,772 ming so'm QQS bilan qurilish bahosi 800353,421 ming so'mga kamaytirilib, ekspertiza natijasiga ko'ra QQS bilan qurilish qilish bahosi - **8932864,351 ming so'mga** tavsiya etildi..

Bundan tashqari buyurtmachining boshqa xarajatlari - **477025,184 ming so'm.**

6.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2016-yildagi 15-son qarorining 4 ilova, II-bob, 8-bandiga muvofiq taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchligi nuqtai nazaridan) va loyihachiga (qabul qilingan loyihaviy yechimlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Namangan shahridagi "Yangiariq" kanalining PK61+51 dan PK71+51 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish ishchi loyihasi ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan narx shartnoma tuzish uchun asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va SHNQ 4.01.16-09ga muvofiq tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki bahoni buyurtmachi qabul qiladi.

Ekspertlar: Sh.Jalilov, A.Xoshimov, S.Madraximov, T.Maxkamov

Bosh mutaxassis: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich